

**TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASINING XORIJIY TILNI O'ZLASHTIRISHDAGI
O'RNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI**

Umarova Nigora Amirjon qizi
UzDJTU 2-bosqich tayanch doktoranti
E-mail: nirnazarova2991@gmail.com
Tel: +99890 318-07-89

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21204696>

Annotatsiya. Ushbu tezis xorijiy tilni o'rganish jarayonida tinglab tushunish ko'nikmasining nazariy va amaliy ahamiyatini yoritishga bag'ishlangan. Zamonaviy tilshunoslik va pedagogikada ushbu ko'nikma passiv emas, balki faol va murakkab kognitiv jarayon sifatida qaraladi. Ushbu ilmiy ishda *J.Richards* tomonidan ishlab chiqilgan tinglab tushunish ko'nikmalarining mikro va makro darajali tarkibiy qismlari tahlil qilinadi. Shuningdek, og'zaki nutqning o'ziga xos xususiyatlari (bo'laklash, takrorlash, qisqartirilgan shakllar, nutq tezligi va prosodiya) tinglab tushunish jarayoniga qay darajada ta'sir ko'rsatishi, shu bilan birga, ushbu to'siqlarni bartaraf etishning samarali strategiyalari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Tinglab tushunish ko'nikmasi, xorijiy til, og'zaki nutq ko'nikmalari, diskurs, muloqot, mikroko'nikmalar, makroko'nikmalar

**РОЛЬ НАВЫКА АУДИРОВАНИЯ В ОВЛАДЕНИИ ИНОСТРАННЫМ
ЯЗЫКОМ И ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЕГО
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ**

Данная научная работа посвящена освещению теоретической и практической значимости навыка аудирования в процессе изучения иностранного языка. В современной лингвистике и педагогике данный навык рассматривается не как пассивный, а как активный и сложный когнитивный процесс. В настоящей научной работе анализируются микро и макро уровневые структурные компоненты навыков аудирования, разработанные Дж. Ричардсом. Кроме того, обсуждается, в какой степени специфические характеристики устной речи (членение на смысловые блоки, повторы, редуцированные формы, темп речи и просодия) влияют на процесс аудирования, а также рассматриваются эффективные стратегии преодоления данных трудностей.

Ключевые слова: навык аудирования, иностранный язык, навыки устной речи, дискурс, коммуникация, микро навыки, макро навыки.

**THE ROLE OF LISTENING COMPREHENSION SKILL IN FOREIGN
LANGUAGE ACQUISITION AND LINGUODIDACTIC FOUNDATIONS FOR ITS
IMPROVEMENT**

Abstract. This thesis is devoted to elucidating the theoretical and practical significance of listening comprehension skills in the process of foreign language learning. In modern linguistics and pedagogy, this skill is regarded not as a positive, but as an active and complex cognitive process. This scientific work analyzes the micro- and macro-level structural components of listening comprehension skills developed by J.Richards.

Furthemore, the extent to which the specific characteristics of oral speech (clustering, redundancy, reduced forms, rate of delivery, and prosody) influence the listening comprehension process is examined, along with a discussion of effective strategies for overcoming these obstacles.

Keywords: Listening comprehension skill, foreign language, oral speech skills, discourse, communication, micro-skills, macro-skills.

Kirish. Tinglab tushunish uzoq vaqt davomida chet tilini o’qitish metodikasida ikkinchi darajali ko’nikma sifatida e’tirofsiz qolgan bo’lsa, bugungi kunda bu ko’rsatkich tubdan o’zgarmoqda. O’tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab, og’zaki nutqni va tushunarli kirish materialini (comprehensive input) o’rgatishga qaratilgan tadqiqotlar kuchayishi til o’rganishda tinglab tushunish ko’nikmasining o’rni beqiyos ekanligini yaqqol ko’rsatib berdi. Hozirgi kunda tinglab tushunish ko’nikmasi nafaqat til materialini idrok etish vositasi, balki muloqotni baholash va davom ettirish, real hayotiy vaziyatlarda til birliklarini o’zlashtirish va yangi leksik-grammatik shakllarni aniqlashning asosiy kanali hisoblanadi.

Asosiy qism. Tinglab tushunish uzoq vaqt davomida ikkinchi tilni o’rganishda e’tibordan chetda qolgan ko’nikma bo’lib kelgan va ko’pincha gapirish ko’nikmasi soyasida qolgan. Biroq vaqt o’tishi bilan uning ahamiyati tobora tan olinmoqda. Og’zaki nutq ko’nikmalari va tushunarli kirish materialini (comprehensive input)ga urg’u berilgan davrlarda tinglab tushunishga bo’lgan qiziqish ortdi, bu esa birinchi va ikkinchi tilni o’zlashtirish bo’yicha tadqiqotlar bilan qo’llab-quvvatlandi. Bugungi kunda tinglab tushunish til o’rganish uchun zarur bo’lgan kirish materialini ta’minlashi, muloqotni qo’llab-quvvatlashi, talabalarni haqiqiy og’zaki nutq bilan tanishtirishi va yangi til birliklariga e’tibor qaratishga yordam berishi sababli muhim deb hisoblanadi. [4]

J.Richardsga ko’ra, tinglab tushunish ko’nikmalari quyidagilarga bo’linadi: **Mikroko’nikmalar (gap darajasidagi ko’nikmalar):** qisqa muddatli xotirada til bo’laklarini saqlab qolish; o’ziga xos tovushlar, urg’u va qisqartirilgan shakllarni tanib olish; pauza, xatolar yoki turlicha tezlik bilan nutqni qayta ishlash; grammatik sinflar, belgilar va gapning tarkibiy qismlarini aniqlash. **Makroko’nikmalar (diskurs-darajasidagi ko’nikmalar):** kengroq kontekst, o’zaro muloqot, mavzu davomiyligini saqlash va diskurs izchilligini tushunishni o’z ichiga oladi. Bu ko’nikmalar samarali tinglab tushunish ta’limi va baholash dizaynini yo’naltiradi, talabalarga haqiqiy hayotdagi og’zaki nutqning murakkabliklarini hal qilish strategiyalarini ishlab chiqishda yordam beradi.[2] Demak, bu ikki daraja o’zaro bog’liq bo’lib, ularni sinxron rivojlantirish samarali tinglab tushunish ta’limi va baholash tizimining asosi hisoblanadi.

Tinglab tushunish, og’zaki nutqning bir qator o’ziga xos xususiyatlari sababli qiyin bo’lishi mumkin. Agar bu xususiyatlarga e’tibor berilmasa, tushunishni qiyinlashtiradi. Ular quyidagilar:

Bo’laklash (Clustering): gapni butun gap sifatida emas, balki kichikroq “bo’laklar” shaklida qabul qilinadi, shuning uchun o’rganayotganlar butun gap yoki har bir so’z o’rniga boshqarilishi oson so’z guruhlarini tanib olishni o’rganishlari kerak.

Takrorlash (Redundancy): og’zaki nutq ko’pincha fikrlarni takrorlaydi yoki parafraza qiladi, bu esa tushunishni osonlashtiradi va qo’shimcha vaqt beradi. O’rganayotlar bunday takrorlashni chalkashlik emas, balki yordam sifatida qabul qilishlari mumkin.

Qisqartirilgan shakllar (Reduced forms): ogʻzaki nutq koʻplab qisqartirilgan yoki biriktirilgan shakllarni oʻz ichiga oladi (masaln, “Djeetyet?” “Did you eat yet” – “Did you eat?”), bu esa rasmiy yozma shakllarga odatlangan talabalarga qiyinchilik tugʻdiradi.

Ijro xilma-xilligi (Performance variables): gapirishda ikkilanishlar, notoʻgʻri boshlanishlar, pauzalar va oʻz-oʻzini toʻgʻirlashlar tez-tez uchraydi, bularni chetlab oʻtishga oʻrgatilmagan talabalarni chalgʻitadi.

Kundalik nutq tili (Colloquial Language): Idioma, jargon, norasmiy iboralar va madaniy maʼlumotlar talabalar uchun, ayniqsa rasmiy tilni oʻrganganlar uchun noaniq va tushunarsiz boʻlishi mumkin.

Nutq tezligi (Rate of Delivery): tili oʻrganilayotgan mamlakat sohiblari tez va pauzalarning turlicha davomiyligi bilan gapirishadi, bu esa talabalar uchun qiyinchilik tugʻdiradi, chunki ular yozilgan matn kabi gapni toʻxtatib, qayta tinglay olishmaydi.

Urgʻu, Ritm va Intonatsiya (Stress, Rithm, and Intonation): Ingliz tilining prosodiyasi, yaʼni urgʻu, ritm va intonatsiya soʻzlardan tashqari, hissiyotlar, kinoya yoki urgʻu kabi muhim maʼnolarni yetkazadi va toʻliq tushunish uchun ular ham oʻrganilishi zarur.

Oʻzaro muloqot (Interaction): tinglash koʻpincha suhbatda faol ishtirok etishni va muloqotni anglatadi, yaʼni talabalar nafaqat tinglab tushunish, balki javob berish, aniqlik kiritish va suhbatni davom ettirishni ham bilishlari kerak boʻladi.[2] Darxaqiqat, yuqoridagi xususiyatlarni inobatga olmasdan tashkil etilgan tinglab tushunish mashgʻulotlari til oʻrganuvchilarda noaniqlik va tushunmovchilikka olib kelishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, tinglab tushunish koʻnikmasi xorijiy tilni oʻzlashtirishda faqatgina yordamchi emas, balki markaziy oʻrin tutuvchi koʻnikma hisoblanadi. Zamonaviy til taʼlimi tinglab tushunishni real hayotiy muloqotning faol komponenti sifatida qarashi, talabalarni nafaqat eshitishga, balki tinglangan axborotga asoslanib fikrlash, javob qaytarish va suhbatni boshqarishga oʻrgatishi zarur. Bu esa oʻz navbatida oʻqituvchilardan tinglab tushunish darslarini tashkillashtirishda yuqoridagi omillarni kompleks hisobga olishni, shuningdek, talabalarni turli vaziyat va tezlikdagi ogʻzaki matnlar bilan tanishtirishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Bailey, K.M. (2020). Teaching listening and speaking in second and foreign language contexts, Bloomsbury Academic, 233p
2. Brown, H.D., and Lee, H. (2015). Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy (4th ed.) Pearson Education, Inc. 685p. p.343
3. Nafa, M.S. (2023). A broad guide to teaching the skills of listening and speaking. Cambridge Scholars Publishing. 265p.
4. Nunan, D. (2001). New ways in teaching listening. The Journal of TESOL France, 8. p.51 (15.01.2026)
5. Palmer, E. (2022). Teaching the core skills of Listening and Speaking. Alexandria, VA USA. 216p.